ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№2(1)

2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari ... 22
Ashurov Ramzidin Ramazonovich

Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari ... 27
Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi

Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari ... 32
Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi

Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ... 35
Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi

Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ... 39
Xaybatullaeva Sojidaxon Ziynatullayevna

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv ... 42
Kamolitdinov Mirzohid

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi ... 45
Kamolitdinova Dilnoza Axmadilaxanovna

Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari ... 48
Nurjanova Rayxan Urazbaevna

Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari ... 52
Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi

Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari ... 56
Sadikova Umida Botirovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi ... 60
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi

Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari ... 64
Aminova Dilnoza Orifjonovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish ... 69
Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi

Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari ... 73
Mirsaitova Guzal Baxodirovna

Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi ... 76
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi ... 79
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati ... 82
Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi

Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar ... 85
Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida ... 89
Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li

Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish ........ 94
Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li

Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari ........ 99
Axmedova Dilnoza Anvarovna

Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari ........ 102
Bakirov Otabek Bo'ranovich

Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari ........ 106
D. J. Norboyeva

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri ........ 110
Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi

Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ........ 113
Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar ........ 117
Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

Principles of Organising Autonomous Learning ........ 121
Khazratova Zukhra Mamaraimovna

Najot – ta'limda, najot-tarbiyada ........ 124
Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna

Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers ........ 127
Niyozov Javlonbek

Landshaft dizayni vostasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 131
Radjapova Zuxra Tirkashevna

Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari ........ 134
S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva

TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.... 138
Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik

Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari ........ 142
Solihova Barno Sodiq qizi

Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari ........ 146
Yarmatov Shermo'min Rahmatovich

Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье ........ 149
Атаджанова Сохиба Талиповна

Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ........ 152
Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona

Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish........ 155
Kayumova Nazokat Rashitovna

Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari ........ 163
Eshonqulova Umida Xolmirzayevna

MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi ....... 168
To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna

Ta'lim jarayonidagi konfliktlar ........ 173
Abulova Mohigul Komiljonzoda

Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ....... 176
Inomova Mahliyo Yusuf qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya .................. 179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna

18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari ........................................ 183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich

Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida) ..................................................... 187
Yadgarova Surayyo

Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ........................................................................................ 190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili ................................................................................................ 194
Yusupova Sanobar Odil qizi

Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели ............................ 197
Бахтияр Катибжанович Саттаров

Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодалении стресса у детей дошкольного возраста ............................................................................................ 201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова

Условия эффективности инклюзивного образования ............................................................... 206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова

Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов ....................................................... 211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева

Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников .................... 216
Джалилова Феруза Намазовна

Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ................................................... 219
Zuhriddin Azizov

Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США) ...................................... 222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.

Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста ............. 227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова

Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar ......................................................... 231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna

# MILLIY MEROS VA MUSIQIY MADANIYATNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI

Zuhriddin Azizov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** O‘zbek xalqi ming yillik boy tarixga ega. Bu tarix tarkibiga salmoqli musiqiy meros ham kiradi. Ulug‘ ajdodlarimiz bola tarbiyasida musiqaning roli haqida o‘z asarlarida fikr bildirganlar. Bugungi kun pedagogikasida ham musiqaning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta’kidlanmoqda. Maqolada ushbu jihatlar e’tiborga olingan.

**Kalit so‘zlar:** Farobiy, musiqa, musiqa tinglash, musiqa psixologiyasi, ma’naviy tarbiya, qobiliyat, musiqiy obraz, mashg‘ulotlar, bayram ertaliklari.

**Abstract:** The Uzbek people possess a rich history spanning thousands of years, which includes a significant musical heritage. Great ancestors addressed the role of music in child upbringing in their scholarly works. In modern pedagogy, the importance of music in the moral and spiritual development of the younger generation is also emphasized. This article examines and analyzes these aspects.

**Key words:** Farabi, music, music listening, psychology of music, moral education, abilities, musical image, lessons, festive events.

**Аннотация:** Узбекский народ обладает многотысячелетней богатой историей, в состав которой входит и значительное музыкальное наследие. Великие предки в своих трудах неоднократно обращались к роли музыки в воспитании ребёнка. В современной педагогике также подчёркивается важное значение музыки в духовно-нравственном воспитании подрастающего поколения. В статье данные аспекты рассматриваются и анализируются.

**Ключевые слова:** Фараби, музыка, слушание музыки, психология музыки, духовное воспитание, способности, музыкальный образ, занятия, праздничные утренники.

## KIRISH

Markaziy Osiyo qadimdan yuksak madaniyat o‘chog‘i, ilm-fan rivoj topgan zamin sifatida ma’lum va mashhur bo‘lib kelgan. Bu zamindan yetishib chiqqan buyuk olimlar jahon tamadduniga ulkan hissa qo‘shib kelishgan. Xalqimizning musiqa boyliklari ham ulkan va ko‘p qirrali, sermazmun hamda rang-barangdir. O‘lmas mumtoz musiqiy xazinamiz, xalq ijodi va maqomlar xalqimiz orasida professional va havaskor sozandalar ijrolarida doimo yangrab kelgan. Ohangdor kuylarimiz kishiga quvonch baxsh etadi, shu bilan birga og‘ir damlarni yengil qiladi. U insonning oliyjanob fazilatlari va his-tuyg‘ularini ifodalab beruvchi kuchga ega. Ana shunday kuylarni talqin etishda o‘zbek xalqining ma’naviy va milliy boyligi hisoblangan tanbur, dutor, qonun, ud, nay, rubob, chang, gijjak, doira kabi milliy cholg‘ulari mavjud. Ushbu cholg‘ular har qanday qalbni o‘ziga rom etishga qodir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sharqning buyuk mutafakkiri Farobiy o‘zining “Musiqa haqida katta kitob” asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, musiqaning birinchi turi insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi turi ehtiroslarni qo‘zg‘aydi va jo‘shqinlantiradi, uchinchi turi esa o‘yga toldiradi, fikrlashga va tafakkur qilishga majbur etadi. Farobiy musiqaning rivojlanish bosqichlarini, uning inson ruhiga ta’sir qilishi va ma’naviy ozuqa berishi, shu orqali insonni yaxshi ishlarga ruhlantirishi, xursandchilik va qayg‘uda unga hamdam bo‘la olishini hamda musiqaning ezgu ishlarni amalga oshirishga chorlay olishi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon etgan.

Yana bir buyuk olim, dunyo tibbiyotining asoschisi Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dak tarbiyasidagi ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Go'dakning vujudi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onaning qo'shig'i (allasi). Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi ruhiga tegishlidir".

Musiqaning inson hayotida tutgan o'rni shu bilan ahamiyatliki, u davolovchi, aniqrog'i, jism va ruhni muolaja qilish usullaridan biri bo'lishi bilan birga, ma'naviy tarbiyaning ham muhim vositalaridan biridir.

Musiqani tinglay bilish ham, undan zavqlana olish ham san'at hisoblanadi. Insonlarda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan shakllanadi. Bugungi kunda asosiy axborot manbalari sifatida televizor va mobil telefonlar xizmat qiladi. Ana shu vositalar orqali bolalar musiqa tinglash ko'nikmalariga ega bo'lib boradilar. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, kishining kuylash imkoniyatlariga nisbatan tinglash imkoniyati kengroq bo'ladi. Musiqa tinglash orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi.

Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Zero har bir insonda musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa tinglash ko'nikmasi muhim o'rin egallaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Professional musiqachi, mutaxassis musiqa psixologiyasidagi ko'p jihatlarni yetarli darajada o'zlashtirib olishi kerak, chunki musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlar dunyosi kishi ruhini ko'taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvur va xayollarning tushuntirib bo'lmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqat va idealga yaqinlashtiradi, hayotimizni ma'noli, mazmunli, ma'naviy boy hamda go'zal qiladi. Ha, musiqa ruhiy ta'sir imkoniyatiga ega bo'lib, undan ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanish va bu borada uning ahamiyatini yanada kengaytirish zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Musiqa tarbiyasi jarayoni inson musiqa madaniyatining umumiy va shaxsiy asoslarini shakllantirishga, musiqa o'qitish jarayoni esa muayyan musiqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan.

Musiqiy rivojlanish jarayoni har bir alohida insonning musiqa madaniyati va musiqiy qobiliyatlari, shuningdek, ruhiy-fiziologik imkoniyatlarining umumiy o'sib borishi bilan bog'liq. Qobiliyatlar esa tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalar jarayonida shakllanadigan, kishining rivojlanishida ichki shart-sharoit sifatida namoyon bo'ladigan xususiyatlardir.

Odamni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi qobiliyatlar uning tabiatini tashkil etadi, biroq odam tabiatining o'zi tarixiy mahsulotdir, deb ta'kidlagan edi S. L. Rubinshteyn. Odam tabiati uning mehnat faoliyati natijasida tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Intellektual qobiliyatlar odam tabiatini o'zgartira borish jarayonida uni anglash va tushunish bilan shakllansa, badiiy, musiqiy va shu kabi qobiliyatlar esa san'atning boshqa turli ko'rinishlarini rivojlantirish bilan birga yuzaga kelgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijodiy rivojlanish bu pedagogik-psixologik jarayonda shaxsning barcha individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan bo'lib, uning maqsadi bolani mustaqil tovush yechimlarini izlash, kuzatish va kashfiyotlarga yo'naltirishdan iborat. Shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishi musiqiy pedagogikaning umumiy asoslari bo'limidagi bosh mavzulardan hisoblanadi.Insonning musiqiy rivojlanishi uning musiqiy qobiliyatlari va musiqa madaniyatining bir butun tizim sifatida tashkil topishi hamda shakllanishi jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy rivojlanish bu shaxs musiqa madaniyatining jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishidagi tug'ma va o'zlashtirilgan, miqdoriy va sifat o'zgarishlarining har tomonlama takomillashuvidir. Inson o'zining musiqiy rivojlanishida qator yosh bosqichlaridan o'tadi.

Insonning yoshiga xos umumiy xususiyatlarini o'rganish bilan psixologiya fanining maxsus sohasi – yosh psixologiyasi shug'ullanadi. Chaqaloqlik va go'daklik yoshida, hayotining birinchi yilida musiqiy rivojlanish ko'proq ona aytadigan alla qo'shiqlari hamda bolani o'rab turgan musiqiy muhit bilan bog'liq bo'ladi. Hayotining ikkinchi va uchinchi yillarida bola yura boshlaganda u kattalar ortidan ayrim musiqiy va qo'shiq jumlalarini takrorlay oladi. Bu yoshda ritmik eshitish qobiliyati faol rivojlana boshlaydi va bolaga musiqani alohida ritmik hamda raqs harakatlari orqali ifodalash imkonini beradi. Uch yoshda bola o'zining "men"ini anglab yeta boshlaganda, uning istaklari va "men o'zim" kabi talablari ifodalangan keskin vaziyatlarda ota-onalar bolani musiqaga oshno qilish imkoniyatlari haqida o'ylay boshlaydilar. Bolani uy sharoitida musiqa maktabiga joylashtirishga tayyorlash musiqa o'qituvchisi bilan o'tkaziladigan xususiy mashg'ulotlar hamda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi musiqa mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi.

Mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi va musiqa merosini bolalarning idrok etish qobiliyati darajasida bosqichma-bosqich tadbiq etish nazarda tutiladi. Ertalabki badan tarbiya, turli shakldagi mashg'ulotlar, mehnat, sayr, nafosat soatlari, o'yin-kulgi hamda bayram-

larga oid asarlarni aniq rejalashtirib, o'z o'rnida va me'yorida qo'llash "milliy tafakkur" muammosining yechimiga erishishda muhim omil bo'ladi. Avvalo, musiqa repertuarlari bolajonlarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm-shafqat kabi xislatlarni musiqaviy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunda respublika miqyosidagi ijodkor tarbiyachilarning ilg'or tajribalari natijasi va yangicha ishlash metodikasiga asoslangan musiqiy repertuarlar bolalarning yoshiga mos holda, ya'ni bilim va malakalar darajasi, musiqaga munosabati, qiziqishi, qobiliyati, sog'lig'i, kayfiyati, bog'chadagi muhit va boshqa omillarni hisobga olgan holda musiqiy faoliyat turlariga muvofiq shakllantiriladi.

Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor qaratmoqdalar, pedagogika fanida esa qo'shiq aytish faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Milliy ruhni o'zida aks ettirgan xalq qo'shiqlari va laparlar bolalarning olamni badiiy his va idrok etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Musiqa obrazlariga muvofiq turli harakat va raqslarni ifodalash, o'yin jarayonida turli obrazlarni tasvirlash muhim ahamiyatga ega, chunki harakat musiqiy qobiliyatni shakllantirish va jismoniy rivojlantirishda juda muhimdir. Harakat orqali asarning badiiy mazmuni va kayfiyati aks ettiriladi, kuy, ritm, tembr, registr, temp va dinamika tuslarini his etgan holda qo'l, oyoq va gavda qomatlarini musiqaga mos ravishda harakatlantirish musiqiy estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

Bolalar cholg'u asboblarida, ayniqsa, o'zbek milliy cholg'u asboblarida ijro etilgan rang-barang ohanglar orqali sozlarning jarangdor ovozi bilan tanishadilar va ularda ajablanish, zavqlanish hamda quvonish kabi ijobiy ruhiy holatlar vujudga keladi. Dastur mazmunida cholg'u sozlari bilan tanishtirish bilan birga, yoshiga mos bo'lgan urma cholg'u asboblari va musiqiy o'yinchoqlar yordamida oddiy ijrochilik usullarini bajara olishga o'rgatish vazifalari belgilanadi, shu orqali bolalarning musiqiy ijodkorligining dastlabki kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.

Iqtidorli bolalar oddiy qo'shiqlar, o'rgangan raqs va harakat turlarini mustaqil ijodlariga mujassamlantiradilar, turli obrazlarni yangicha talqin etadilar, davra o'yinlarida ta'sirchan xususiyatlarni o'ylab topadilar, ijodiy yutuqlaridan zavqlanadilar va mamnun bo'ladilar. Musiqa faoliyatidagi bunday mustaqillik odimlari bolalarni yoshlikdanoq san'atning sehrli olamida zavqlanishga, go'zal ohanglardan lazzatlanishga, musiqani mehr bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etishga chorlaydi. Ijodiy yondashuv asosida to'g'ri tashkil etilgan bayramlar va bayram shaklidagi tadbirlar, jumladan o'yin-kulgilar, konsertlar, sayllar, askiya, kulgi damlari, nafosat soatlari, turli teatr tomoshalari, qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalari bolalarni kichik yoshdan boshlab ko'ngilochar o'yinlar va bayram ertaliklarining mohiyatini anglab yetishga, ma'naviy ozuqa olishga hamda tasavvurni boyitishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, o'zbek musiqashunosligi boy tarixga ega bo'lib, bugungi kunda, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan e'tibor orqali ana shu boy tarix va an'analar ruhida yosh avlod tarbiyalanmoqda. Bu esa kelgusida shaxs kamoloti hamda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qodirov R. "Musiqa psixologiyasi". Toshkent: UzDK "Musiqa" nashriyoti, 2005-yil.
2. Teplov B. "Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi"// Учёные записки Государственного НИИ психологии, 1941-йил.
3. Soipova D. "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi". Toshkent, 2009-yil.
4. Апраксина О. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, 2003-йил.
5. Апраксина О. А. Методика музыкального воспитания в школе: (учебное пособие для пед. институтов по спец. 2119 "Музыка и пение"). М.: Просвещение, 2003. – 222 с.
6. Методика преподавания музыкальных дисциплин: сб. статей. Т.: Ўқитувчи, 2009. – 95 с.
7. Музыкальная психология: учебное пособие / авт.-сост. Қодиров Р. Г. Т.: Музыка, 2005. – 80 с.
8. Музыкальное воспитание в школе. Вып. 19: сб. статей / сост. О. Апраксина. М.: Музыка, 2007. – 110 с.
9. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi: o'quv-metodik qo'llanma. Toshkent: UzDK, 2009-yil.
10. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi: ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000-yil.
11. Zimina A. N. Osnovi muzikalnogo vospitaniya i razvitiya. M., 2000-yil. Internet manbalari.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

Maktabgacha va maktab ta'limi

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №2(1)**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.